

**Guliston davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya”
kafedrası, Psixologiya fanlari
doktori, professor, Xolnazarova
Matluba Xolbo‘tayevnaning taqrizi
ostida**

**Norbo‘tayeva Ulbo‘sin Hasan qizi
GulDU talabasi
+998948701771
norbotayevaulbosin@gmail.com
Ravshanov Sobir Abdumalik o‘g‘li
GulDU doktoranti
+998881743031
sobirravshanov3@gmail.com**

MULOQOT IJTIMOIIY VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IFODASI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir shaxs muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta‘lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me‘yorlar g‘oya va mafkura omillari ta‘sirida yashab ijtimoiylashishi va shaxs sifatida kamolotga yetishi hamda kishilar o‘rtasida o‘zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanishi va u o‘z ichiga. shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab olishi haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: Muloqot ,til, shaxs, jamiyat, shaxslararo munosabatlar, muloqotning maqsadi, vazifalari, axborot almashinuv.

ОБЩЕНИЕ – ВЫРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ И МЕЖЛИЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация: В данной статье в процессе общения каждый человек социализируется и взрослеет как личность под влиянием социального опыта, воспитания, различных отношений, моральных норм, идей и мировоззренческих факторов, а также взаимодействия между людьми. считается одной из основных категорий педагогико-психологических наук и включает в себя важнейшие механизмы межличностных отношений.

Ключевые слова: Общение, человек, общество, межличностные отношения, цель, задачи общения, обмен информацией.

COMMUNICATION IS AN EXPRESSION OF SOCIAL AND INTERPERSONAL RELATIONS

Annotation: In this article, in the process of communication, each person becomes socialized and matures as a person under the influence of social experience, education, various relationships, moral norms, ideas and ideology factors, as well as interaction between people. it is considered to be one of the main categories of pedagogical-psychological sciences and it includes the most important mechanisms of interpersonal relations.

Key words: Communication, person, society, interpersonal relations, purpose, tasks of communication, information exchange.

“Muloqot” tushunchasi lug’aviy jihatdan arab tilidan tarjima qilinganda “uchrashish”, “ko’rishish”, “qabul qilish” degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa muloqot “ikki yoki undan ortiq shaxslarning o’zaro bir-biriga ta’siri etishi” hisoblanadi.

Muloqot – kishilarning o’zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko’rsatishlari kishilar o’rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; kishilarning bir birlariga ta’sir ko’rsatishi asosida ular o’rtasida ro’y beradigan axborot almashinuvidir.[3]

Muloqot sharqona tarbiyada axloq ko’rki sanalgan. Muallim har bir o’quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o’zaro muloqotida namoyon bo’lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot - azaldan insonlar o’rtasidagi o’zaro aloqa vositasi bo’lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til - aloqa quroli sifatida ta’riflanadi. Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo’lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro-e’tibor topadi. Ko’p gapirish hech qachon kishiga obro’ keltirmaydi. Shuning uchun ham o’tmishda yashab o’tgan mutafakkirlarimiz tilga aytiladigan har bir so’zga hurmat bilan, o’ylab yondashish lozimligini uqtirib o’tganlar. O’qituvchi “so’z aytishdan avval har daqiqada so’z ortidan keladigan oqibatlarni o’yla”shi (I.P. Pavlov) kerak. Alisher Navoiy o’z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to’g’risida, shirinso’zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bugungi kunda ham bu fikrlar o’z ahamiyatini yo’qotgan emas. “Til shirinligi - ko’ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali. Shirin so’z sof ko’ngillilar uchun asal kabi totlidir” - deydi alloma.[4]

Muloqot psixologiyasining predmeti — muloqot madaniyati, muloqot texnikasi, muloqot etikasini o’rganishdan iborat. Muloqot faqat insonlarga xos bo’lgan jarayon hisoblanadi. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan o’zaro muloqotda bo’lish ehtiyoji tug’iladi. O’zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Psixologiya lug’atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta’rif beriladi:

1. Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o’rnatish hamda uni rivojlantirish jarayoni;

2. Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o’zaro ta’sirlashuvi. Muloqot — odamlar o’rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog’lanishlar rivojlanishining ko’p qirrali jarayonidir.

Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko’rsatuvchilar o’rtasida axborot ayirboshlashni o’z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o’zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi.[1]

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlarda ichida etakchi o’rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash hamda o’zini shaxs deb hisoblash bilan bog’liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati beqiyodir. Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o’zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya’ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o’qish, o’yin, ijod qilish va boshqalar) o’zaro munosabat hamda o’zaro ta’sir shakllarini o’z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma’lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o’rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro’si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita

bog'liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

[2] G.M.Andreeva muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi:
1. Muloqotning kommunikativ tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni). 2.Muloqotning interaktiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning xulqatvorlariga ta'sir jarayoni). 3. Muloqotning perseptiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixologik jarayon)[2]

L. A. Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra muloqotning quyidagi vazifalari ajratiladi: — aloqa o'rnatish vazifasi— suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;

— informatsion vazifa — suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar hamda rejalarni almashish;

— faoliyatga undash — suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish (rag'batlantirish);

— koordinatsion vazifa — suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish hamda uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;

— tushunishni ta'minlash vazifasi — suhbatdoshning fikrlari hamda hissiyotlarini tushunish;

— amotiv vazifa — suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish va ularni o'zgartirish;

— munosabat o'rnatish vazifasi — munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqeni aniqlash;

— ta'sir ko'rsatish vazifasi — suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish.[1]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson o'zining qanday dunyoqarashga egaligi , tafakkuri ,bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati aynan shaxslar bilan bo'lgan o'zaro muloqotida namoyon bo'ladi. Inson o'zining ijobiy yoki salbiy munosabati,muloqoti bilan suhbatdoshining hayotida o'z o'rnini belgilab beradi.Insonning tili shirin,muomala

madaniyatiga ega bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida , insonlar oldida obro-e'tibor topadi.Ko'p gapirish hech ham obro-e'tibor keltirmaydi. Xalqimizda bir maqol bor;"o'ynab gapirsang ham , o'ylab gapir". Bu maqol bejiz aytilmagan.kishi gapirishdan oldin yaxshilab o'ylab,idrok qilib nima deyotganini so'ng gapirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2006.— 119 b.
2. Ijtimoiy psixologiya. O'quv –uslubiy majmua.O'.Shukurova . N.B.Xakimova-GulDU.2022-304 bet.
3. H.Abdukarimov,Ya.nurumbekova.Oila pedagogikasi O'quv-uslubiy qo'llanma-Guliston: 2017-269 bet.
4. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011, - 420 b.